

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING AYRIM XUSUSIYATLARI**

**Egamberdiyev Jamol Berdimurodovich-Shahrisabz davlat pedagogika  
instituti, “Ijtimoiy fanlar kafedrası” o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida oilaning o‘rni xususida fikrlar bayon etilgan.Shuningdek bola taraqqiyotining ayrim hususiyatlari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:**bola, ijtimoiylashuv, psixik taraqqiyot, hissiylik davri, o‘yin.

Katta hayot ostonasiga kirib kelayotgan har qanday inson shu ijtimoiy muhit mahsulini o‘zlashtirib, ijtimoiylashuv jarayoniga qadam qo‘yadi. Uning dastlabki qadamlari va tassurotlari inson va jamiyat munosabatlarini o‘zgacha idrok etilishi bilan birga kechadi. Dastlabki tassurotlar va ko‘nikmalar ko‘pincha bolaning yangicha muhitga mos xulq-atvorni nomoyon qilishga undaydi. Bu xulq-atvor unga go‘yoki odamlar bilan muloqot o‘rnata olish, yoki, ularga nisbatan ishonchsizlik tuyg‘ularini uyg‘otishi ham mumkinligini ko‘pincha kattalar anglab ham yetishmaydi.

Ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o‘chog‘i oila bo‘lib, aynan ota va ona dastlabki ijtimoiy ko‘nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charhlovchi insonlardir<sup>1</sup>. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o‘zligini anglash, balki o‘zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Olimlar tomonidan olib borilgan tajribalar shuni isbotladiki, oilaning to‘liq bo‘lishi, ya’ni, unda ham ota, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog‘lom ma’naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog‘lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo‘lib etishiga imkon beradi. Bu psixologik qonuniyat bo‘lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy sotsializatsiyasining etakchi tamoyili hisoblanadi. Shu bois ham bolaning tom ma’noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo‘lishi uchun oila muhiti sog‘lom, barqaror, er va xotin bir-birlariga g‘amxo‘r, mehrli va sadoqatli bo‘lishlari o‘ta muhimdir. Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir. Shu bois ham olimlar oilaning eng muhim va dastlabki vazifalaridan ham birini tarbiyalovchi funksiya ekanligini bu esa ijtimoiy tarkib topishda va anglash tendensiyasida muhimligini e’tirof etadilar. Bu hususida Fransuz psixologi E.Dyurkgeym, ulg‘ayish - kishilarning his-tuyg‘ularni o‘zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an’ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o‘rin tutishini uqtiradi.Bu o‘z

<sup>1</sup> Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygo‘hlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T.:, 2007. – 316 b.

navbatida bolada bilish jarayonlarining rivojlanib borishiga ham yo‘l ochadi.

Bolaning rivojlanishida E.Erikson bolalik davriga katta ahamiyat qaratib aynan, insonga uzoq bolalik xosligini ta’kidlagan: “Bolalikni davom etish texnik va intellektual ma’nolarda insonni mohir, omilkorlik qiladi, lekin, shuningdek, u insonda bir umrga emotsional etilmaganlik izini bolalik davridan sodir bo‘ladigan aqlga sig‘maydigan qo‘rquvni qoldiradi”. Biroq E. Eriksonning insonning qiyinchiliklarni engib o‘tish qobiliyati va shaxs rivojlanishi qaraganda bir muncha optimistiroq. E.Erikson inson yangi darajada avvalgi noadekvat hal etilgan nizoni bartaraf qilish uchun o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir deb hisoblanadi. E.Erikson tomonidan yaratilgan “Ego” rivojlanish nazariyasi, individning butun hayot davrlarini (go‘daklikdan to etuklik va qarilikkacha) qamrab oladi uni ba’zan shaxs hayot yo‘lining kontseptsiyasi deb atashlari bejizga emas.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog‘cha yoshi o‘rta maktabgacha davr (o‘rta. bog‘cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog‘cha yoshilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avadi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga qiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tili, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borish, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak, asosan, shu davrdan boshlab bolaning mo‘staqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan, tarbiya, ularning murakkab xarakterlarini o‘zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki ko‘rtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog‘cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xususiyatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib o‘quvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi, Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o‘zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning rol'i kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq, bilishga intiladi va o'zoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. Bu dunyodagi bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning xarakterlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil xolda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish o'z o'rnini yeg'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakillantirishga erishish mumkin. Buning natijasida bolaga faqatgina aqliy rivojlanish bo'lib qolmasdan, yualki uning jismoniy rivojlanishida ham katta o'zgarishga olib keladi.

A.A.Mechnskaya, V.S.Muxinalarning mulohaza qilishiga qaraganda, bolalardagi injiqliklarni bosh omili atrofda odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, noto'g'ri, mensimay munosabatda bo'lishidan iborat ekan va bunda bolaning psixikasida inqiroz kelib chiqadi.

O'yinlar maktabgachan yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. O'yin bu bolaning o'ziga xos faoliyati bo'lib bola anashu faolit orqali o'z atrofidagi xayotda aktiv aks etadi. O'yin bolalarning tevarak – atrofdaagi xayoti bilan tanishish vositasi. O'yinlar bir qator amaliy xarakterlarni egallab olish vositasi, xarakterning o'ziga xos belgisini shakillantirishning vositasidir. O'yinlar faoliyatning turi sifatida avvalo bolalar kichik yoshidan – katta yoshga o'tganlari sari va ular kollektiv xayotiga qo'shib borganlari sari o'zgarib boradi.

Bolaning qo'lidan keladigan mehnat faoliyatiga jalb etish uning jismoniy, aqliy, ahloqiy jixatdan qancha rivojlanishdan dalolat beradi. Bu yoshdagi mehnat birinchidan bolaning bilimni aniqlashda kengaytiriladi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, uning bilish faoliyati xarakati shunchalik katta bo'ladi. Ikkinchidan, bolalarning xilma – xil ko'nikma va malakalarini o'sishga xizmat qiladi. Uchinchidan qobilyat va xarakter xislatlarining shakillanishiga ta'sir etadi.

Mariya Montaseri mazkur davrni hissiylik davri deb ataydi. Shunga binoan bola o‘z harakati tufayli otrof-olamda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga hayrat bilan qaraydi, juda qiziqqon bo‘ladi, ko‘p savollar beradi, kattalarday bo‘lgisi keladi. Shunday ekan bolaning talab va istaklarini tushunib, uning ongiga ijtimoiylikka xos unsurlar: turmush tajribasi, uy mehnati, ertaklar, o‘yinlar, qiziqishiga yarasha mashg‘ulotlarga jalb qilib borish bolaning ijtimoiylashuvida muhim o‘rin tutishini unitmasligimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Z.T.Nishonova, N.G‘.Komilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiya. Pedagogik psixologiya” Darslik, Toshkent-2018.
2. Эльконин Д.Б. Избранное психологические труды. - М., 2000.
3. Эриксон Э. Детство и общество. М., 2017.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun – T.:, 2007. – 316 b.
5. Majidov, J. (2022, March). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA‘LIMI O‘ZLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK SABABLARI. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 1).
6. Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 608-613.